

Turatov Shuxrat Xudoyberdi O'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son davolash ishi fakulteti 106-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Kiyamova Dilfuza Sharifovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrası.

Ishning maqsadi: Tog' rayonining dorivor xususiyatlaridan fodalaniib, uy sharoitida organizmda uchraydigan kasalliklarni va noqulayliklarni bartaraf etishni o'rganish.

Muammoning dolzarbligi: Hozirgi kunda inson organizmining immuniteti pasayib ketganligi sababli ko'p kasallik holatlari uchramoqda. Bunga sabab vitamin va ba'zi boshqa moddalar va biogen elementlar yetishmasligi. Shuning uchun biz kasallik va ba'zi noqulay holatlarni bartaraf etishda tog' rayonidan tayyorlanadigan tabiiy mahsulotlardan foydalanishimiz kerak.

Tadqiqot natijalari: Tekshiruv ishlarimizni uy va statsionar sharoitlarda davolash usullariga qo'shimcha ravishda tog' rayonidan tayyorlangan mahsulotlardan foydalanishga qaratdik. Chunki u tabiiy mahsulot, zararsiz va Ibn Sino bobomizning "Tibb qonunlari" kitobida ham davolari hamda foydalanish usullari keltirilgan. Tog' rayhoni tarkibida makroelementlar (Mg, Na, Ca), mikroelementlar (Cu, Zn, Fe, F, Se), efir moylari 2,2%, tanin 6-8%, organik kislotalar, C darmon-dorisi, karotin, oshlovchi moddalar, urug'ida 28-30% moy mavjud. Shularni bilgan holda tog' rayonidan tayyorlangan rayhon moyi, va bir necha xil damlamalardan foydalanamiz.

Rayhon moyi tish og'rig'ini qoldiradi. U quyidagicha tayyorlanadi: bir qism quritilgan tog' rayhon o'tiga 0.5 litr zaytun yoki pista moyini aralashtirib, 8 soat dimlab qo'yiladi, so'ng ezib dokadan o'tkaziladi. Tayyor bo'lgan moy paxta pilikchaga shimdirilib tish kovagiga qo'yilsa, og'riqqa barham beradi.

Tog' rayonidan tayyorlangan damlamalar Turli xil kasalliklar va asoratlarga da'vo hisoblanadi. Ko'p ishlatiladigan damlamasi balg'amni yumshatib, yengil ko'chishini ta'minlaydi; oshqozon-ichak trakti motorikasini kuchaytiradi; o'pka infeksiyon kasalliklarida, yuqori va pastki nafas yo'llari kasalliklarida, bronxitni davolashda qo'shimcha sifatida ishlatish bemor o'zini yengil his qilishi hamda ishtahani ochilishiga yordam beradi, qabziyat va qorin dam bo'lishini davolaydi. U quyidagicha tayyorlanadi va ishlatiladi: 2 choy qoshiq maydalangan rayhon 400 ml qaynatilgan suvga 1 choy qoshiq asal bilan birgalikda yarim soat mobaynida dimlab qo'yiladi. Keyin tindirilib, suzib olinadi va 2-3 mahal ichiladi. Damlama 1 sutkada iste'mol qilinishi kerak.

Xulosa: Xulosa qilib aytish mumkinki tog' rayonidan tayyorlangan damlamalar va moyi organizmni turli joylaridagi kasallik va og'riqlarga davo hisoblanadigan tabiiy mahsulotlardan biridir.

Shuningdek ko'p kasalliklar (peshob tutilishi, yurak, o'pka kasalliklari, nafas yo'llarida yaralar, quloq yiringi, bivosil, bod kasalligi, shamollash, mushak og'riqlari, tomoq og'rig'i, qovoq shamollashi, bosh og'rig'i, falaj, uyqusizlik, asab, ko'z va gijja kasalliklari)ni davolashda foydalanishimiz mumkin.

- 1: <https://azkurs.org/tograyhon-osimligi-dorivor-hususiyatlari-va-umumiy-tasnifi.html>
- 2: Mirzamid MIRZASHARIPOV: <https://xalq-tabobati.uz/uy/2092/tabobat-dorixonasi/tograyxonning-siz-bilmagan-foydalari/#:~:>
3. Киямова Д. Ш., Аскарлов К. А., Холмуродова Д. К. Исследование влияния наполнителей на физико-механические свойства угольных брикетов //Universum: технические науки. – 2021. №. 8-2. – С. 49-51
4. Kholmurodova D., Kiyamova D. Study of the process of producing fuel briquettes from industrial waste //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 238-243.
5. Киямова Д. Ш., Холмуродова Д. К. Разработка научно-методических принципов и технологии получения угольных брикетов //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-8 (97). – С. 56-58.
6. Yusupova S. S., Kholmurodova D. K., Kiyamova D. S. Vexibia Alopecroides-How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 20. – С. 25-30.
7. Kholmurodova D. K., Kiyamova D. S., Nurmanova I. M. Study of the structure, physico-chemical properties of the selected organic and non-organic ingredients on the basis of local and secondary raw materials, as related to the development of coal briquettes //Thematics Journal of Chemistry. – 2022. – Т. 6. – №. 1.
3. Киямова Д. Ш., Аскарлов К. А., Холмуродова Д. К. Исследование влияния наполнителей на физико-механические свойства угольных брикетов //Universum: технические науки. – 2021. №. 8-2. – С. 49-51
4. Kholmurodova D., Kiyamova D. Study of the process of producing fuel briquettes from industrial waste //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 238-243.
5. Киямова Д. Ш., Холмуродова Д. К. Разработка научно-методических принципов и технологии получения угольных брикетов //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-8 (97). – С. 56-58.
6. Yusupova S. S., Kholmurodova D. K., Kiyamova D. S. Vexibia Alopecroides-How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 20. – С. 25-30.
7. Kholmurodova D. K., Kiyamova D. S., Nurmanova I. M. Study of the structure, physico-chemical properties of the selected organic and non-organic ingredients on the basis of local and secondary raw materials, as related to the development of coal briquettes //Thematics Journal of Chemistry. – 2022. – Т. 6. – №. 1.